



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025–2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI (11-SINF)

FANIDAN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball

Ushbu savollar kitobi 8 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Quyidagilardan BMT tizimidagi inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro organlarni aniqlang.

1) Inson huquqlari bo'yicha kengash; 2) Inson huquqlari bo'yicha qo'mita; 3) Xotin-qizlarni kamsitishga qarshi qo'mita; 4) Irqiy kamsitishlarga qarshi qo'mita; 5) Qiynoqlarga qarshi qo'mita; 6) Bola huquqlari bo'yicha qo'mita; 7) Qochoqlar huquqlari bo'yicha kengash.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7

B) 1, 2, 3, 4, 5, 6

C) 2, 3, 4, 5, 6, 7

D) 1, 3, 4, 5, 6, 7

2. [0,9 ball] Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

(a)—muayyan davlat organi yoki bo'linmasining ichki tashkiliy hamda faoliyat tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat.

(b)—vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilingan huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat.

A) a-soliq; b-normativ-huquqiy hujjat

B) a-normativ-huquqiy hujjat; b- reglament

C) a-reglament; b-normativ-huquqiy hujjat

D) a-hujjat; b-dalil

3. [0,9 ball] Quyidagilarni to'g'ri moslashtiring.

1	1789-yili Fransiyada qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi, 9-modda	a	Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.
2	Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 11-modda	b	Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har qanday kishi qonunga muvofiq aybi isbotlanmaguncha begunoh deb sanalish huquqiga ega.
3	Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 14-modda, 2-band	c	Har bir shaxsning aybi aniqlanmaguncha aybsiz hisoblangani sababli shaxsni hibsga olish zarur deb topilgan hollarda kerak bo'lmagan har qanday haddan tashqari qattiq choralar qonun bilan taqiqlanishi zarur.

A) 1-c; 2-a; 3-b

B) 1-c; 2-b; 3-a

C) 1-a; 2-b; 3-c


D) 1-b; 2-c; 3-a

4. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga muvofiqlashtiring.

I. Muqobil xizmat

II. Harbiy xizmat

III. Umumiy xususiyatlar



a) Harbiy xizmatning turlari; b) kontrakt bo'yicha harbiy xizmat; c) fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yordamchi) ishlarni, shuningdek, falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir; d) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

A) I-c; II-d; III-a

B) I-b; II-c; III-a

C) I-a; II-d; III-c

D) I-b; II-c; III-d

5. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

I. Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

II. Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

III. Jamoat birlashmasi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

A) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri

B) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

C) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

D) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri

6. [0,9 ball] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlariga oid quyidagi qaysi qoidalarga ASOSLANMAYDI?

1) Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish – davlatning majburiyati; 2) Inson huquqlari va majburiyatlari unga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi va har kimning tengligi; 3) Inson huquqlari va erkinliklari tizimi xalqaro huquq normalariga mos kelishi; 4) Fuqarolarning huquq va erkinliklari Prezident tomonidan himoya qilinishi; 5) Fuqarolarning huquq va erkinliklari sud organlari tomonidan himoya qilinishi; 6) Inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquqlarini poymol qilmaslik.

A) 4, 5

B) 2, 4

C) 1, 3


D) 2, 6

7. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga muvofiqlashtiring.

I. Konvensiya

II. Deklaratsiya

III. Umumiy xususiyatlar



a) majburiy ahamiyat ega bo'lgan xalqaro shartnoma; b) normativ-huquqiy hujjat; c) tavsiya kuchiga ega bo'lgan huquqiy hujjat; d) xalqaro shartnomalarning turlari.

A) I-c; II-d; III-a

B) I-a; II-c; III-b

C) I-a; II-d; III-c

D) I-a; II-c; III-d

8. [0,9 ball] Quyidagi mamlakatlarni o'zaro muvofiqlashtiring.

1) mutlaq monarxiya; 2) cheklangan monarxiya; 3) teokratik monarxiya; 4) noananaviy monarxiya.

a) Norvegiya; b) Qatar; c) Malayziya; d) Vatikan.

A) 1-b; 2-d; 3-a, 4-c

B) 1-d; 2-b; 3-a, 4-c

C) 1-b; 2-a; 3-d, 4-c

D) 1-c; 2-d; 3-a, 4-b

9. [0,9 ball] Quyidagi holatlarda jinoyat tarkibining subyektiv tomonini aniqlang.

1. Nodira o'ziga ortiqcha ishonishi oqibatida svetofoarning sariq chirog'ida to'xtamasdan chorrahadan o'tib ketdi. Natijada avtotransport hodisasiga sabab bo'ldi.

2. 2019-yilning 20-fevral kuni Buxoro shahrining Sheyxon ko'chasida yashovchi Shermatovlar uyida yong'in sodir bo'lgan. Yong'in nazoratsiz qoldirilgan 9 yoshli qizaloqning gugurt o'ynaganligi oqibatida kelib chiqqanligi aniqlangan.

3. 2019-yil 22-fevral kuni 2 noma'lum shaxs Toshkent viloyatining Bekobod tumanida yashovchi Malika (ismli ayol)ning uyiga o'zlarini tuman gaz filiali xodimlari deb tanishtirib kirib, kuch ishlatish orqali ayoldan pul talab qilgan va uyda pul yo'qligini bilishgandan so'ng voqea joyidan yashiringan.

a) qasddan; b) ehtiyotsizlik orqasidan; c) aqli rasolik, muayyan yoshga to'lganlik; d) jinoyat deb topilmaydi; e) ijtimoiy munosabatlar; f) jinoyatning tashqi ko'rinishi.

A) 1-b; 2-c; 3-a

B) 1-d; 2-b; 3-a

C) 1-b; 2-d; 3-a

D) 1-c; 2-d; 3-a

10. [0,9 ball] Quyidagilar qanday huquq manbasi ekanligini aniqlang.

1) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi; 2) Dengiz huquqi odatlari to'plami; 3) O'zbekiston

Respublikasining Jinoyat kodeksi; 4) AQSH Oliy sudi qarori; 5) O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi; 6) Maktab direktorining buyrug'i; 7) Salom berish.

a) huquqiy odat; b) normativ-huquqiy hujjat; c) yuridik pretsedent; d) xalqaro shartnoma; e) Huquq manbasi hisoblanmaydi.

A) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c, 5-c, 6-b, 7-e

B) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c, 5-b, 6-e, 7-e

C) 1-d, 2-a, 3-b, 4-b, 5-c, 6-b, 7-e

D) 1-e, 2-a, 3-b, 4-c, 5-c, 6-b, 7-e

11. [1,5 ball] Quyidagi holatni tahlil qilib, o'zaro moslashtiring.

Abdulla do'kondan qimmatbaho o'quv qurollarini o'g'irlab oldi.

1) huquqiy munosabat turi; 2) obyekt; 3) subyekt; 4) subyektiv huquq; 5) yuridik majburiyat.

a) jinoiy-huquqiy munosabat; b) ma'muriy huquqbuzarlik munosabatlari; c) Abdulla; d) sotuvchi; e) qimmatbaho o'quv qurollari (mulk huquqining buzilishi); f) do'kon egasi o'z mulkini qaytarib olishi yoki tovon puli olishi; g) Abdullaga nisbatan ta'sir choralari (jazo)ni qabul qilib olish oqibati.

A) 1-a, 2-e, 3-c,d, 4-f, 5-g

B) 1-a, 2-e, 3-c, 4-f, 5-g

C) 1-b, 2-e, 3-c, 4-f, 5-g

D) 1-a, 2-e, 3-c, 4-g, 5-f

12. [1,5 ball] Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javobni aniqlang.

(a)... aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish.

(b) mol-mulkni ochiqdan ochiq talon-taroj qilish.

(c)... zo'rlik ishlatish tahdidi bilan mol-mulkni berishni talab qilishga qaratilgan jinoyat.

A) a-firibgarlik, b-bosqinchilik, c-tovlamachilik

B) a-firibgarlik, b-talonchilik, c-bosqinchilik

C) a-firibgarlik, b-tovlamachilik, c-talonchilik

D) a-firibgarlik, b-talonchilik, c-tovlamachilik

13. [1,5 ball] "Jamoa a'zolarining barchasi uchun majburiy-huquqiy qonunlar zarur bo'ladi" fikri muallifining qalamiga mansub asarni aniqlang.

A) "Kitob al-Hidoya"

B) "Al-ishorat va al-tanbihot"

C) "Fozil odamlar shahri"

D) "Siyosatnoma" ("Siyar ul-muluk")

14. [1,5 ball] Obyektiv huquq va subyektiv huquq haqidagi NOTO'G'RI fikrni aniqlang.

1) obyektiv huquq – huquq normalarining yig'indisi; 2) subyektiv huquq ma'lum bir shaxs yoki guruhga tegishli bo'lgan huquq; 3) obyektiv huquq normalarini jamiyat o'rnatsa, subyektiv huquq normalarini davlatning vakolatli organlari belgilab beradi; 4) subyektiv huquq obyektiv huquqsiz mavjud bo'lmaydi; 5) kimningdir uy-joyga bo'lgan yoki biror-bir mulkka nisbatan bo'lgan huquqi subyektiv huquqdir; 6) obyektiv huquq normalarining shakllanishi subyektiv huquq normalarini asos qilib oladi.

A) 1, 3

B) 5, 6

C) 3, 6

D) 3, 4

15. [1,5 ball] Barcha ma'muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo'lgan soliq va kredit siyosati qanday davlatning belgisi hisoblanadi?

A) unitar davlat

B) federativ davlat

C) konfederativ davlat

D) respublika

16. [1,5 ball] Davlat va jamiyat tushunchalari haqidagi NOTO'G'RI fikrni aniqlang.

1) Davlat – jamiyatning shakllangan siyosiy instituti; 2) Davlat jamiyat taraqqiyotining natijasida muayyan davrda vujudga kelgan; 3) Davlat jamiyatni boshqarishda barcha odamlar tomonidan boshqariladigan

boshqaruvi, eng avvalo, majburlash usuliga asoslangan; 6) Jamiyat o'z rivojida qanday bosqichlardan o'tsa, davlat ham shunga mutanosib tarzda o'zgarib, takomillashib boraveradi.

- A) 3, 5
- B) 4, 6
- C) 4, 5
- D) 2, 3

17. [1,5 ball] BMT Inson huquqlari qo'mitasi haqidagi NOTO'G'RI javobni aniqlang.

1) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalari o'z ishtirokchi davlatlari tomonidan bajarilishini nazorat qiluvchi mustaqil ekspertlar guruhidan tashkil topuvchi tuzilma; 2) Qo'mita davlatlarning davriy hisoboti yuzasidan o'zining tavsiya va yakuniy xulosalarini taqdim etib boradi; 3) Qo'mitaning tavsiya va yakuniy xulosalari natijasida davlatlarning ichki qonunchiliklari, siyosat va amaliyotlarida ko'plab ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi; 4) Qo'mitaning tavsiya va yakuniy xulosalari natijasidagi o'zgarishlar insonlarga o'zlarining fuqarolik va siyosiy huquqlaridan foydalanishga yordam beradi; 5) BMT Bosh assambleyasining rezolyutsiyasiga asosan Ikkinchi jahon urushidan keyin insonlarga moddiy yordam va ko'mak ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan; 6) Qo'mita o'z faoliyati jarayonida barcha insonlar teng imkoniyatlarga ega bo'lishiga intiladi.

- A) 5, 6
- B) 4, 5
- C) 3, 6
- D) 3, 4

18. [1,5 ball] Quyidagi yuridik matnda qaysi so'z yoki so'z birikmasi NOTO'G'RI qo'llanilgan?

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati belgilashi lozim. Kafolat muddati tovar iste'molchiga sotilgan yoki xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab hisoblanadi. Kafolat muddati tovar (xizmat)ning chekida yoki tovarni sotish yoxud xizmat ko'rsatish paytida tovar bilan birgalikda iste'molchiga beriladigan hujjatda ko'rsatiladi.

- A) chek
- B) hujjat
- C) kafolat muddati
- D) uzoq muddat foydalaniladigan

19. [1,5 ball] O'zbekiston Respublikasi Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasiga qo'shilgan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) O'zbekiston BMTga a'zo bo'ldi.
- B) O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan "Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro markazni tashkil etish g'oyasi" BMT tomonidan qabul qilindi.
- C) O'zbekiston Respublikasining birinchi prezident Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasida mustaqil O'zbekiston nomidan nutq so'zladi.
- D) Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston prezidenti sifatida ilk bor nutq so'zladi.

20. [1,5 ball] O'zbekiston Respublikasidagi hududlarning huquq ustuvorligi indeksi aniqlanadigan asosiy yo'nalishlariga taalluqli BO'LMAGAN javobni aniqlang.

- 1) Qonun hujjatlariga rioya qilinishi; 2) Odil sudlov va sud qarorlarining ijro etilishi; 3) Fuqarolar huquq va erkinliklarining ta'minlanishi; 4) Mahalliy ijro organlari faoliyatining samarali nazorat qilinishi; 5) Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan xavfsizlikning ta'minlangani; 6) Korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradori oshkoraligi.

- A) 1, 3
- B) 4, 6
- C) 5, 7
- D) 3, 4

21. [2,6 ball] Bo'shliqni to'ldiring.

Huquqshunoslik olamida (a)... tamoyili ko'pincha (b)... sohasida tilga olinsa-da, aholini ijtimoiy himoya qilishda, ayniqsa, aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamini himoyalashda va (c)... boyliklarning adolatli taqsimotida uning o'rni beqiyosdir.

- A) *a*-insonparvarlik, *b*-konstitutsiyaviy huquq, *c*-moddiy
- B) *a*-insonparvarlik, *b*-jinoyat huquqi, *c*-moliyaviy
- C) *a*-insonparvarlik, *b*-fuqarolik huquqi, *c*-moddiy
- D) *a*-insonparvarlik, *b*-jinoyat huquqi, *c*-moddiy

22. [2,6 ball] Aliment haqida keltirilgan to'g'ri javobni aniqlang.

- A) Agar voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmasa, ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilmasa, vasiylik va homiylik organlari aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'ata oladi.
- B) Er-xotin o'rtasida aliment to'lash to'g'risida kelishuv bo'lmasa, er yoki xotinga sud tomonidan beriladigan aliment miqdori har bir yil uchun pul bilan to'lanadigan summada belgilanadi.
- C) Er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyati qonuniy nikohdan, shuningdek diniy rasm-rusm asosida nikohdan o'tgan shaxslarga yuklatiladi.
- D) Er-xotinning bir-biridan ta'minot olish huquqi nikohdan ajralgan, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin farzandli bo'lganda tugaydi.

23. [2,6 ball] Neustoyka, garov, qarzdoming mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat kabi yuridik terminlarni o'zaro birlashtiruvchi javobni aniqlang.

- A) shartnoma majburiyatlari
- B) majburiyatning bajarilishi usullari
- C) taraflarning huquq va majburiyatlari
- D) kompensatsiya

24. [2,6 ball] Quyidagi BMT ga oid matndagi bo'shliqni to'ldiring.

BMT ning yuqorida keltirilgan maqsadlari ichida eng oliysi xalqaro hamjamiyatning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash hamda xalqaro hamjamiyatda yuzaga keladigan ixtiloflarni yumshatish hisoblanadi. Tashkilot tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda qoidasiga amal qiladi.

- A) jamoaviy xavfsizlik
- B) ichki ishlarga aralashmaslik
- C) suveren tenglik
- D) kuch ishlatmaslik

25. [2,6 ball] Bo'shliqlarni to'ldiring.

Tarixiy qadriyatimiz bo'lgan «Avesto»da ayol kishi shaxsiy mulkka ega bo'lishining huquqiy asoslari mavjud. Ayol kishi o'z mulkidan (a)... maqsadlarida mustaqil foydalanishi, shuningdek, mustaqil ravishda (b)... bo'lishi va (c)... sifatida ko'rsatuvlar berishi mumkin bo'lgan. Nikoh (d)... huquqiga ko'ra unga kiruvchilarning ikki tomonlama xohishi natijasi bo'lib, faqat shundan keyingina ota-onalar va vasiylar tomonidan tasdiqlangan.

- A) *a*-xayriya, *b*-guvoh, *c*-javobgar, *d*-zardushtiylik
- B) *a*-hadya, *b*-da'vogar, *c*-javobgar, *d*-islom

C) *a*-xayriya, *b*-da'vogar, *c*-javobgar, *d*-zardushtiylik

D) *a*-xayriya, *b*-da'vogar, *c*-guvoh, *d*-zardushtiylik

26. [2,6 ball] Quyidagi vaziyatlarda er-xotin o'rtasidagi mulk turini aniqlang.

1-vaziyat. Alisher xotini Zulfiya bilan zebu-ziynatlar sotib oldi. Ularning umumiy bahosi yigirma million so'mdan oshdi.

2-vaziyat. Ali xotini Zarnigorga qimmatbaho mashina hadya qildi.

3-vaziyat. Zarmina turmushga chiqqan. Unga qaynotasidan katta yer uchastkasi meros qoldi.

4-vaziyat. Musiqachi Amir va ashulachi Zebo o'zaro nikohda. Ularning ko'plab shaxsiy musiqa asboblari bor.

A) 1-umumiy mulk, 2-xususiy mulk, 3-xususiy mulk, 4-ommaviy mulk

B) 1-umumiy mulk, 2-xususiy mulk, 3-xususiy mulk, 4-umumiy mulk

C) 1-xususiy mulk, 2-xususiy mulk, 3-xususiy mulk, 4-xususiy mulk

D) 1-umumiy mulk, 2-xususiy mulk, 3-xususiy mulk, 4-xususiy mulk

27. [2,6 ball] Quyidagi konstitutsiyaviy normalarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/ noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

I. *Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.*

II. *Monopol faoliyat taqiqlanadi.*

III. *Davlat monopol investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi.*

A) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri

B) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

C) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri

D) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri

28. [2,6 ball] NOTO'G'RI keltirilgan konstitutsiyaviy normani aniqlang.

A) Vazirlar Mahkamasining a'zolari ularning nomzodlari Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullanganidan keyin O'zbekiston Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi.

B) Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining amaldagi tarkibini yoki a'zosini iste'foga chiqarishga haqli.

C) Vazirlar Mahkamasi a'zolari parlament so'rovlariga va Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a'zosining so'rovlariga qonunda belgilangan tartibda javob berishi shart.

D) Bosh vazir lavozimiga nomzod Qonunchilik palatasida uning nomzodi ko'rib chiqilayotganda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan strategiyasini taqdim etadi.

29. [2,6 ball] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida qanday g'oyalarga sadoqatimiz namoyon qilingan?

1) demokratiya; 2) mustaqillik; 3) erkinlik; 4) adolat; 5) tenglik; 6) qonuniylik; 7) ijtimoiy adolat; 8) birdamlik.

A) 1, 3, 4, 5, 7

B) 1, 3, 5, 6, 8

C) 1, 3, 5, 7, 8

D) 1, 2, 5, 6, 7

30. [2,6 ball] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi qaysi mansabdor shaxslarda farmoyish qabul qilish vakolati mavjud?

1) Qonunchilik palatasi Spikeri; 2) Senati Raisi; 3) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti; 4) Oliy sud raisi; 5) Konstitutsiyaviy sud raisi; 6) Markaziy saylov komissiyasi raisi; 7) Hisob palatasi raisi; 8) Davlat xavfsizlik xizmati raisi.

A) 1, 3, 7

B) 1, 3, 5

C) 2, 4, 5, 6, 8

D) 1, 2, 3